

Z.M.BOBUR IJODIDA VATAN SOG'INCHI.

*O'zbekiston Respublikasi IIV Navoiy akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari
Bobojonova Yulduz Boboxonovna,
Raximova Sanobar Karimovna*

Annotatsiya: Maqolada adabiyot fanida Z.M.Boburning hayoti va ijodini o'qitishda foydalanilgan uchun malumotlar berilgan bo'lib, bunda shoirni hayot yo'li va ijodi yo'nalishlariga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Afg'oniston va Sharqiy Hindiston, buyuk shoir va davlat arbobi, olimlar, shoirlar, faylasuflar, tabiblar, Shayboniyxon, Chig'atoyxon nasli, «Boburnoma», «Hatti Boburiy», «Mufassal», «Qobul devoni», «Hind devoni».

Vaslidin so'z derga yo'q yoro manga
Xayr aro raxm alagil yoro manga
Ukung etdi ko'p yoro manga
Marhami lutfun bila yoro manga

Qadimni firoq mehnati yo qildi
Ko'nglum gamu andux o'tiga yoqildi
Holimni saboga aytib erdim ey gul
Bilmam, sanga sharx qilmadi yoqildi

O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari qadimdan barcha sohalardagi xox iqtisodiy sohada, xox madaniy va san'at sohasida, xox ilmu-fan sohasida bo'lsun, o'zaro aloqalar kuchli bo'lgan. Tibbiyot sohasidagi aloqalar ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, bu sohadagi aloqa Temuriylar avlodining oxirgi namoyondasi – buyuk shoir va davlat arbobi Zaxiriddin Muhammad Bobur sulolasi hukumronlik qilgan (XVI-XIX asr) davrida juda yuqori daraja deyish mumkin. Bunday aloqalar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Tarixdan ma'lumki, Bobur 1495 yilda otasi Umarshayx vafotidan so'ng taxtga o'tiradi, 1500 yil esa Samarqandni qo'lga kiritadi. Bu vaqtga kelib Samarqandga Shayboniyxon tajovuz qiladi. 1501 yilda Shayboniyxon Samarqandni egallaydi va Bobur bu shahardan chiqib ketishga majbur bo'ladi. U 1513 yilda Afg'oniston va Sharqiy Hindiston hududlarini birlashtirib Boburiylar sulolasiga asos soladi. Shu hududda Boburiylar sulolasi XIX asrgacha hukum surgan. (Boburiylar) Bobur ham Temuriylarning boshqa namoyondalari bo'lib, o'zi o'qimishli shoir bo'lgan, u ilm axlini qadrlar, ularga saroydan joy berib ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan edi. Shoh saroyida olimlar, shoirlar, faylasuflar, tabiblar yashab, ijod qilganlar.

Qo'qidagi asli O'rta Osiyodan ammo Hindistonda yashab, ijod etgan bir necha tabiblar bilan ularning amaliy ishlari va ilmiy meroslari bilan tanishib, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi tibbiy aloqaning qay darajada bo'lganligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Bobur adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng e'tiborli va buyuk vakilidir. U 1483 yilning 14 fevralida Farg'ona viloyatining poytaxti Andijonda tug'ildi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo (1455-1494) Temurbekka evara – to'rtinchi (Abusaid Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshox-Amir Temur) avlod edi. Onasi Kutlug' Nigorxonimning otasi Toshkent hokimi Yunusxon esa o'zbeklashgan mug'ul urug'idan bo'lib, 12 avlod bilan CHingizxonga tutashgan. Boburni «CHingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidandur» deb tanishtiradi. Unga Muhammad Bobur deb ism berdilar. «Bobur» ning arabdagi ma'nosi she'rdir. Keyinroq ulug'larga, shohu shahzodalarga qo'shilib aytiladigan ismi sharif sifatida «Zahiriddin» ilova etiladi. «Zahir» ning ma'nosi ko'p, shulardan biri homiy, yana biri esa sergul daraxt ekan.

Umarshayx Mirzoning uch o'g'li (Zahiriddin Muhammad Bobur Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo), besh qizi (Xonzodabegim, Mehribonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Ruqiya Sultonbegim) bo'lib, Bobur o'g'illarining eng kattasi edi. Opasi - o'zidan besh yosh katta, Xonzodabegim bilan bir onadan edilar.

Umarshayx Andijonning g'arbida joylashgan Aysi (Axsikat, deb ham aytilgan, Sirdaryoning eng sohilida hozirda Namangan viloyati, Shahand qishlog'i hududida xarobalari saqlanadi) shahrini poytaxt qilgan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevral. Taniqli davlat arbobi, iqtidorli lashkarboshi ajoyib shoir adabiyot nazariyotchisi, o'z davrining buyuk tarixchisi va nasr ustasi Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida temuriyzoda podsho Umarshayx oilasida dunyoga keldi.

1494 yilning iyuni fojiali halok bo'lgan otasining o'rniga 12 yoshli Bobur taxtga o'tirdi. SHu kundan boshlaboq, u o'z ulug' bobosi Amir Temurning poytaxti bo'lgan Samarqandga hujum qiladi va uni egallaydi. Ammo yuz kundan so'ng Andijonni qo'ldan chiqarmaslik uchun bu erni tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Kundalik daftar yuritib, ular asosida mashhur «Boburnoma» nomli memuar asarni yaratdi. Unda 1499-1529 yillar voqealari tasvirlangan. «Hatti Boburiy» deb atalgan alifboni yaratgan (1502-1504 yil). Aruz nazariyasi haqida «Mufassal» risolasi (taxt 1525-y) ni yozdi. Zahiriddin Muhammad Bobur nomida Namangan shahridagi madaniyat va istirohat bog'i, Namanganda shox ko'cha, To'raqo'rg'onda kinoteatr, O'ychida Bobur nomida jamoa – xo'jaligi, Andijonda kutubxona va ko'cha, Toshkentda Bobur bog'i va ko'cha, Respublikamizda maktab, uquv yurtlari, xo'jaliklar, kutubxonalar, stipendiyalar mavjud.

Bobur ikki tilda o'zbek va tojik tillarida erkin ijod etdi . U o'zbekcha she'rlarini to'plab, 1519 yilda Qobulda, 1528-1529 yilda Hindistonda devonlar tuzdi . Bu ikki devon o'sha joylar nomlari bilan «Qobul devoni», «Hind devoni» deb ataladi . Qobul devoni topilgan emas. Bizgacha etib kelgan she'rlarining umumiy soni 400dan ortadi. Shundan 119 tasi g'azal , 231 tasi ruboiy .

Bobur she'rlarining ma'lum qismi xasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan bir lavhasi bog'lanadi . Har bir she'rning yozilishi tarixi bor. Shoir she'rlarining bir qismi an'anaviydir . Lekin deyarli hammasi benihoya samimiy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan . Bobur she'riyatining ko'pchiligi Vatan haqidadir . Ular Vatandan judolik azobi , u bilan birga bo'laolmaslik iztiroblarini ifodalaydi . SHoir bularning hammasini taqdirdan deb biladi . O'zini baxtsiz, tole'siz deb hisoblaydi . Tole'sizlik bilan chiqisha olmaydi . Alam bilan Qobulni , Hindistonni zabt etadi , biroq bundan ko'ngli taskin topmaydi.

Qadimni firoq mehnati yo qildi
Ko'nglum gamu andux o'tiga yoqildi
Holimni saboga aytib erdim ey gul
Bilmam, sanga sharx qilmadi yoqildi

Bobur she'rlarining ma'lum qismi xasbi hal xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan bir lavhasi bog'lanadi . Har bir she'rning yozilishi tarixi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rafiyev .N.G'ulomov « Ona tili va adabiyot».Toshkent-2012y.
2. O'.Boboyorov , F.Xolsaidov «Adabiyot»-kasb-hunar kollejlari uchun darslik.
3. Safo Matjon,Sh. Sariyev"O'zbek adabiyoti".Toshkent-2011
4. N.M.Mallayev «O'zbek adabiyoti tarixi». 2-kitob
5. Maktab ona tili va adabiyot darsliklari. 5-9-sinflar uchun.
6. Shoir va yozuvchilarning asarlari. Al-Buxoriy hadislari, Navoiy asarlari, Bobur asarlari...
7. M.B.To'xliyev, B,Abduraxmonova 1-2-3-bosqich adabiyot darsliklari. Toshkent-2010
8. M.Jumaboyev "Bolalar adabiyoti"."O'qituvshi"n-Toshkent-2008.